

UDK: 811.512.133'282(575.171)

ISM VA LAQABLARNING LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA
O'RGANILISHI

Manzura Karimboyeva Dilmuratovna,

O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti

E-mail: 777manzura777@gmail.comORCID: <https://orcid.org/0009-0002-2931-1788>DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18948179>

Annotatsiya. Zamonaviy tilshunoslik tamoyillariga asoslangan holda antroponimik birliklarni tadqiq qilish masalasi dolzarblik kasb qiladi. Ayniqsa dialektal antroponimik birliklarni lingvomadaniy aspektga tayanib o'rganish, shevadagi ism va laqablarning lingvistik va madaniy xususiyatlarini ochib berish zamonaviy tilshunoslik hamda o'zbek shevashunosligi uchun ham ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: til, madaniyat, ism, laqab, sheva, qadriyat.

Аннотация. Вопрос исследования антропонимических единиц на основе современных принципов лингвистики является актуальным. Особенно изучение диалектных антропонимических единиц, опираясь на лингвокультурный аспект, выявление лингвистических и культурных особенностей имен и прозвищ в диалекте имеет значение как для современной лингвистики, так и для узбекской диалектологии.

Ключевые слова: язык, культура, имя, прозвище, диалект, ценность.

Abstract. The issue of studying anthroponymic units based on the principles of modern linguistics is relevant. In particular, the study of dialectal anthroponymic units based on the linguocultural aspect, the disclosure of linguistic and cultural features of names and nicknames in the dialect is of great importance for modern linguistics and Uzbek dialectology.

Keywords: language, culture, name, nickname, dialect, value.

Kirish. Jahon tilshunosligida onomastika sohasi ko'plab ilmiy tadqiqotlarga qiziqarli va dolzarb mavzu vazifasini bajarib kelmoqda. Xususan, onomastik ko'lamdagi antroponimlar tadqiqi nafaqat tilshunoslar, balki boshqa soha vakillarini ham qiziqtirib kelgan mavzu hisoblanadi. Onomastik tadqiqotlar tilshunoslik sohasida katta yutuq sifatida baholanadi. Onomastika til onomastikasi birliklarini tashkil qiladi, har qanday atoqli otni o'z tarkibiga qamrab oladi va lisoniy jihatdan o'rganadi. Onomastikon - biror tildagi atoqli otlarning umumiy mazmunini ifoda qiladigan lug'at bo'lib, muayan davrdagi etnik guruhning tiliga tegishli bo'lgan atoqli otlar repertuaridir[1.128].

Bugungi kun tilshunosligida tilni uning egasi bilan aloqador holda tahlil qilish masalasi tilshunoslikda yangi va ahamiyatli yondoshuvlarning shakllanishiga erishdi. Tilga yangicha yondashuv turli xil tilshunoslik yo'nalishlarining vujudga kelishiga yo'l ochadi. Bu kabi yondashuvlar esa til rivojiga katta hissa qo'shadi. Tilshunoslar butun dunyoda tilni tadqiq etishning eng maqbul yo'llarini hamisha izlab kelgan. Bu jarayonlarda jiddiy muvaffaqiyatlarga ham erishilgan[2.16]. Shunday muvaffaqiyatlardan biri – antropotsentrik tilshunoslik. Antropotsentrik tilshunoslik, soddaroq aytganda, markazida inson turadigan tilshunoslik mazkur haqiqatga asoslangan, shu haqiqat namoyon bo'lishining ming bitta yo'llarini ilmiy izlashga qaratilgan eng istiqbolli

yoʻnalishdir. Bu yoʻnalishning tarmoqlaridan biri lingvokulturologiya yoki lisoniy madaniyatshunoslik boʻlib, u tilni “til – madaniyat – inson” uchligi doirasida oʻrganadi, bu fan bugun keng isteʼmolda boʻlgan milliy ong, milliy mentalitet, milliy xarakter kabi juda koʻplab tushunchalarning asosini til tashkil etishi, tilsiz ularning mohiyati barqaror boʻla olmasligini ochib berishini asosiy maqsad deb biladi[3.167]. Tilimizda mavjud nomlar esa xalq tarixi, uning tafakkuri, eʼtiqodi va ishonchlaridan xabar beradi. Shu boisdan antroponimik birliklar lingvomadaniy birlik sifatida tahlil qilinadi. Shaxs nomlari shaxslarni atash va boshqalardan farqlash vazifasini bajaribgina qolmasdan, millat madaniyati bilan bogʻliq qadriyatlar haqida ham maʼlumot beradi. Har bir millatning oʻziga xos milliy nomlar fondi mavjud boʻlib, xalq tarixi, orzu-umidi va madaniy qarashlarini oʻzida mujassam qiladi. Ism va uning maʼnosi masalasi nafaqat tilshunoslarni, balki boshqa soha vakillarini ham qiziqtirib kelgan. Tilshunoslikda nomning vazifasi, uning nominativ asoslari borasida muammoli masalalar oʻz javobini topgan boʻlishiga qaramasdan, nom ifodalagan maʼno tomoni munozarali jihatligicha qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Dunyo tilshunoslari atoqli nom va turdosh nom orasidagi farqlarni ochiqlash borasida salmoqli izlanishlar olib borgan. Ism milliy ramz sifatida qaraladi. Maʼlum millatga tegishli nomlar milliy ism sifatida qayt qilinadi. Jahon tilshunosligida shaxs nomlari va unga aloqador boʻlgan birliklar masalasida A.A.Reformatskiy, S.P.Vaynshteyn, V.A.Nikonov, A.E.Mitroshkina, N.V.Podolskaya, Z.B.Muhammedova, A.V.Superanskaya, V.U.Maxpirov, E.U.Omakayeva kabi olimlar izlanishlar olib borgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda lingvistik, lingvokulturologik hamda antroponimik tahlil metodlaridan foydalanildi. Ism va laqablarning kelib chiqishi, maʼno motivatsiyasi hamda madaniy asoslarini aniqlash uchun tavsifiy (deskriptiv) va qiyosiy-tahliliy metodlar qoʻllanildi. Shuningdek, dialektal antroponimlarni oʻrganishda kontekstual tahlil hamda etnolingvistik yondashuv asosida ism va laqablarning xalq madaniyati, urf-odatlar va eʼtiqodlari bilan bogʻliqligi ochib berildi.

Tahlil va natijalar. Har bir nomlangan ism oʻz tarixi va nominativ asosiga ega. Ismlardagi madaniy jihatlar haqida oʻzbek tilshunosi E.Begmatov “Ismlarning sirli olami” monografiyasida maʼlumotlar keltirib oʻtilgan. Xalq orasida, baʼzi hollarda ismlar lugʻatida ham ijobiy va salbiy maʼnoga ega ismlar roʻyxati haqida maʼlumotlarda duch kelamiz. Ismlarni bu kabi guruhlariga ajratish nojoizdir. Chunki biz salbiy maʼnoga ega deb bilgan ismlar zamirida muayyan eʼtiqod namunalari, yoki ota-onaning umidi ifodalangan boʻlishi mumkin.

Ism va laqablarni lingvokulturema sifatida oʻrganish asnosida til va madaniyat masalasi toʻqnashadi. Til birliklari orqali madaniy hayot, qadriyatlar, urf-odat, eʼtiqod va ishonchlar ifodalanadi. Masalan, xalqimiz orasida tishi bilan tugʻilgan bolalarga “boʻri” asosli ismlar beriladi. Bunday ismlarning zamirida qadimgi turkiy xalqlarning eʼtiqodlari yotadi. Bundan tashqari turkiy xalqlar orasida boʻri tishi himoya vositasi va omad

keltiruvchi tumor sifatida qadrlangan. Bu ismning tarixi tug'ilgan farzand sog' bo'lsin, mahkam bo'lsin deb bo'ringing jag'idan o'tkazish odatiga borib taqaladi. Bo'ri komponentli ismlar "O'zbek ismlari ma'nosi"[4.82] lug'atida variantlari bilan keltirilgan. Ismlarning etnografik ma'nolarini izohlashga bag'ishlangan lug'atda asosan madaniy ahamiyatga ega ismlar ro'yxati keltirilgan. Tilimizda ma'nosiz ismlar mavjud emas. Ism ma'nosi ism asosidagi so'z, ism qo'yilishiga sabab bo'lgan mohiyat hamda vaziyat taqazosi asosida ochiladi. Misol tariqasida yapon milliy ismlarini keltirishimiz mumkin: Takashi, Satoshi, Makato, Aika, Natsumi, Riko, Namiko. Yapon ayollarining ismlari tarkibidagi -mi, -ko kabi qo'shimchalar o'ziga xos ma'no ifodalagan. -mi qo'shimchasiga ega ismlar go'zallik, noziklik va maftunkorlikni ifodalab kelsa, -ko shakli bilan tugagan ayol ismlari "bola" ma'nosini bildiradi. Takashi ismi yapon xalqi orasida eng mashhur ismlardan bo'lib, "yuqori" degan ma'noni anglatadi[5]. Har bir ism san'at darajasida baholangan. Ular ma'lum bir ramzlarni va oilaning qaysi tabaqaga mansubligini ifodalab kelgan. O'rta asrlarda yapon ayollari familiyaga ega emas edilar. Aristokratik oilalardan bo'lgan qizlarning ismlari ko'pincha "hime" bilan tugaydi (bu "malika" degan ma'noni anglatadi). Samuray xotinlarining ismlari "gozen" bilan tugaydi. Ko'pincha ularga erining familiyasi va unvoni bilan murojaat qilishgan. Dvoryanlardan bo'lgan yapon rohiblari va rohibalarining ismlari "in" bilan tugaydigan bo'lgan[5].

Mintaqaviy ismlarda hududga mansublik masalasi ism tarkibi va talaffuzidan sezilib turadi. Masalan, Xorazm vohasi ismlari tarkibidagi indikatorlar va shevaning tasiri nomlarning mintaqaga mansubligini ifodalaydi. S.Rahimov 1998-yilda "Xorazm mintaqaviy antroponimiyasi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Tadqiqotda ba'zi tarixiy va mifologik ismlarning ma'no va motivatsiyasiga oid fikrlar keltirilgan. Muallif Xorazm vohasi aholisi ismlari uchun xos bo'lgan ism komponentlari va mintaqaviy ismlarni belgilashga erishgan. Tilshunosning yozishicha, xorazmcha ismlar tarkibida *juma, niyoz, anna, odina, poshsha, shoh, rajab, ro'zi, qurvon, quron, hayit, ota, bobo, esh, meng*[7.79] komponentlarining kelishi xarakterlidir deya baholaydi. Badiiy asarlarda milliy koloritni yaratish uchun mintaqaviy nomlardan ham foydalaniladi. Regional nomlar shaxsning ma'lum hududga mansubligini ifodalaydi.

Ismlarga yondosh holda shaxslarni nomlab keluvchi birliklar laqablardir. Dastlaki davrlarda laqablar familya vazifasini bajargan. Laqab faqatgina shaxsni farqlash vazifasini bajaribgina qolmasdan, uning fe'l-atvori, jismoniy holati, turmush tarzi, yashash joyi, etnik mansubligi, kasb-kori, mansabi va e'tiqodi haqida ma'lumot beradi. Laqab vazifasini bajaruvchi leksema orqali xalq tilining lisoniy xususiyatlarini ham bilish mumkin. Bugungi kunda laqablardan foydalanish masalasi biroz kamaygan. Laqablar madaniy birlik sifatida xalqning yashash tarzi, ijtimoiy hayoti, xalq dunyoqarashi, hunarmandchiligi, etnik tarkibi, qadriyatlari va milliy urf-odatlaridan darak beradi. Xorazm shevasida laqablardan keng foydalaniladi. Masalan, shevada *xodim* laqabi bor. Bu laqab shaxsning xalq orasida ma'lum bir mansabga ega ekanligini bildiradi. *Xodim* laqabi

lingvomadaniy birlik sifatida xalqning birdamligini, har ishni boshlashda bir boshliq bo'lishi lozimligini anglatadi. Laqab egasi xalqning quvonchli va qayg'uli kunlarida ular bilan birga bo'ladi. To'y va janoza marosimlarida barcha tashkiliy ishlarni zimmasiga olgan ayol *xodim* deb ataladi. Ko'p yillar davomida ayollarga bosh bo'lgan ayol keyinchalik mahalladoshlari tomonidan ushbu laqab bilan atala boshlaydi. Xorazm shevalaridagi laqablarni struktur-semantik va vazifaviy jihatdan o'rgangan tadqiqotchi X.Qodirova laqablarning shakllanish xususiyatlari, ism bilan munosabati, struktur modeli, semantik turlari va funksional-diskursiv xususiyatlari haqida mulohazalarini keltirib o'tgan. Bundan tashqari laqablarning tarixiy va badiiy asarlardagi ahamiyatiga ham to'xtalgan. Ogohiy asarlaridagi shaxs nomlarini tahlil qilgan. Muallifning bu izlanishlari Xorazm shevasidagi antroponimlarni o'rganishda yangi bosqich bo'ldi. Tadqiqotda X.Qodirova laqab vazifasidagi leksemalarning etimologiyasini yoritishga harakat qiladi. "Čečä"(yanga, kelinoyi) – aslida shevada qarindoshlikni ifodalovchi birlik bo'lib, tadqiqotda laqab vazifasida ishlatilishi va uning kelib chiqishi etimologik jihatdan yoritilgan[8.92]. Čečä so'zining etimologiyasini egä:t – nikoh kechasi kelin yonida xizmat qiluvchi xotin, yanga[9.85] leksemasi bilan bog'laydi. Bu o'rinda o'zbek milliy urf-odatlariga ishora qilinmoqda. Chunki yosh kelinga tayinlangan yanga nafaqat bir kechalik, balki bir umrlik maslahatlar beradi. Shu boisdan kelin yangalari hayot tajribasiga ega bo'lgan qarindosh ayollardan tayinlanadi. Yangalardan biri katta yoshli, ikkinchisi esa kichik yoshli ayol bo'ladi. Kelinga yanga tayinlash holati Markaziy Osiyo xalqlariga xos urf-odat hisoblanadi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, tilimizda mavjud har bir nom madaniy kod vazifasini bajaradi. Ularda millatning orzu-armoni, urf-odatlarini, qadriyatlarini va e'tiqodlarini mujassam bo'ladi. Ism va laqablar — bu xalqning ma'naviy pasportidir. Ularni o'rganish orqali millatning o'tmishi, buguni va kelajakka bo'lgan qarashlarini tushunish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. М.: Наука, 1988. С. 128.
2. Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. № 5. – Тошкент, 2012. – Б. 16.
3. Махмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Мумтоз суз, 2017. – Б.167.
4. Бегматов Э. Ўзбек исмлари маъноси: – Тошкент.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриётиб 2007. – Б. 82.
5. <https://uz.fashionrebelsbook.com/17320596-japanese-names-and-surnames-beautiful-japanese-names>
6. Раҳимов С. Хоразм минтақавий антропонимияси: Филол. фан. ном.... дис. Тошкент, 1998. – Б.63-79.
7. Qodirova X. Xorazm shevasidagi laqablarning struktur-semantik va funksional xususiyatlari.– Urganch. 2023, - B.92.
8. Махмуд Кошғарий Девону луғотит турк, I. – Тошкент: Фан, 1960. – Б. 85.